



ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 05th July 2022

KEY WORDS

tahlil, milliy ruh, talqin,
tilshunoslik, lisoniy
birliklar, kesimlik.

Mustaqilligimizdan so'ng milliy qadriyatlarimiz bilan birga milliy tilimiz, madaniyatimiz va tariximizni qayta tiklay boshladik. Milliy o'zlikni anglash tushunchasi qaror topa boshladi. Bu esa milliy o'ziga xoslikni anglashga zamin yaratdi. «Milliy o'ziga xoslik bevosita milliy til, millatning madaniyati, tarixi, ruhiyati va dunyoqarashida aks etadi va ularning qorishmasi sifatida namoyon bo'ladi hamda idrok qilinadi»⁸. Mustaqillik tufayli bugungi kunda milliy til, milliy mafkura, milliy tafakkur va milliy dunyoqarash kabi tushunchalarga alohida e'tibor qaratilib, ularning uzviy aloqadorligi e'tirof etilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimov istiqlolimizning dastlabki yillaridayoq milliy til va uning milliy mafkurada tutgan o'rne haqida to'xtalib, «xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish, respublikada yashovchi xalqlarning milliy madaniyatlari va tillariga o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lish»

MILLIYLIK VA MILLIY GRAMMATIKA MUNOSABATI

Azizbek Berdiyev Asatillayevich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti

III bosqich talabasi

Tel:+998975535919

Email: azizbekberdiyev95@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6798314>

ABSTRACT

Ushbu maqola o'zbek tili sintaktik qurilishining an'anaviy talqinida sodda gap va yig'iq gap masalasi yoritib berilgan. Maqolada mazkur masala borasida rus va o'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan tadqiqot ishlaridan, hozirgi o'zbek adabiy tili, maktab darsliklari va qo'llanmalaridan, o'zbek tilining izohli lug'ati va badiiy asarlardan ijodiy foydalanilgan holda yoritildi.

zarurligini alohida ta'kidlab, "ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar»⁹, - degan edilar. Milliy til va milliy tafakkurning shakllanishi hamda rivojlanishi haqida tilshunoslarimiz M.Mirtojiyev va N.Mahmudov o'zlarining «Til va madaniyat» risolasida «har bir til o'z so'z boyligiga, bu so'zlar esa ma'lum fonetik qurilishiga, izchil grammatik qonuniyatlariga ega bo'ladi. Uning shu tomonlariga putur yetib borar ekan, til inqirozga yuz tutadi»¹⁰, - deydilar. Tilshunos olim G'.Zikrillayevning ta'kidlashicha, «milliy adabiy tilning ahvoli ana shu ma'nodagi milliy ruhga bog'liq bo'ladi». Milliy ruh esa milliy tafakkur va milliy tuyg'u bilan uzviy bog'liqdir.

Milliy ruh, milliy tuyg'u, milliy adabiy til tushunchalari istiqlolimizdan so'ng keng ko'lamda tavsifu talqin etildi. Adabiy til va til madaniyati muammolari kun tartibiga qo'yildi. Tilning grammatik qurilishi va uning ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy ahamiyati masalalari dolzarb mavzuga aylandi. Til va uning grammatik



qurilishini talqin etish hamda tilning ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy ahamiyati bir narsa emasligi va til uni o'rganayotgan, talqin etayotgan fanga nisbatan nisbiy mustaqillikka egaligi isbotlandi. Ma'lumki, tilning o'z ichki qonuniyatlari mavjud bo'lib, u nafaqat shaxsga, hattoki jamiyatga ham bo'ysunmaydi va u tilshunoslarning talqin hamda hukmlariga ham mutlaqo befarqdir. Shuningdek, u tilni bilmagan kishini o'ziga bo'ysundiradi. Shu o'rinda tilshunos olim A.Peshkovskiyning «grammatikani bilmagan kishi tilni boshqarmaydi, aksincha, uni til boshqaradi»¹¹, - degan iborasini eslashimiz kifoya. N.Mahmudovning "Til" asari o'zining alohida milliy va turkona bayon uslubi, qo'yilgan muammoning o'ta dolzarbligi bilan ajralib turadi. Unda o'zbek tilining milliy jozibasi, tarovati, rang-barang tovlanishlari, so'zlaridagi ma'no va ifoda zalvorining yuksakligi, har bir lug'aviy birlikda mujassamlashgan milliy tarix va ruhning uyg'unligi, o'ziga xosligi xalq og'zaki ijodi materiallari asosida o'zining betakror ilmiy hamda badiiy ifodasini topgan. O'zbek tilshunosligi tom ma'nodagi mustaqil fan sifatida o'zbek tilining o'zbekona tabiatini ochiq-oydin o'rganib, uni milliy g'oya va milliy mafkurani targ'ib qilishning tarkibiy qismiga aylantirdi. Bugungi kunda morfologiyada grammatik kategoriya va shakllarning, so'z turkumlarining yangicha tasnifi, sintaktik hodisalarning yangi nuqtai nazardan tadqiq qilinishi natijasida ta'limga olib kirilayotgan ilmiy yangiliklar - gapning markazi sifatida kesimning qaralishi, gap va so'z kengaytiruvchilarining farqlanishi, gap bo'laklarining darajalanishi, sodda va qo'shma gap oralig'ida uyushgan gaplarning ajratilishi, gap markaziga

tayangan holda qo'shma gaplarning yangicha tasniflanishi kabilar fikrimizning dalilidir. Bular esa grammatika, milliylik va milliy mafkura tushunchalarining jinsdoshligini ko'rsatadi.

O'tgan asrning 20-yillarida o'zbek tili grammatikasiga ilmiy asos qo'yila boshladi. Grammatika tarkibiga kiruvchi sintaksis bo'limiga ham e'tibor berila boshladi, hamda oliy va o'rta ta'lim tizimi uchun darsliklar yaratildi. Gap haqida Fitratning «Sintaksis» ("Nahv") kitobida (1924-yilda nashr etilgan) bir qancha fikr ma'lumot berildi va bu darslik 1925-1930-yillarda uch marta nashr etildi. Shu davr talabiga mos ravishda Fitratning «Sintaksis»i bilan bir qatorda yangi darsliklar ham paydo bo'la boshladi. Bunga misol qilib N.Said, A.Yo'ldoshevlarning «Grammatika»sini, H.G'oziyevning «O'zbek tili grammatikasi» darsliklarini aytish mumkin. Bu darsliklarda sodda gap haqida fikrlar bildirilib, sodda-qo'shma gaplarni farqlashda ko'proq egaga tayanilgan. Bu holat esa ega va kesim bilan subyekt va predikatni qorishtirib tahlil qilishga olib keldi. Ammo bu davr ilmiy sintaksisini o'rganishning ham ahamiyatli tomoni mavjud. Chunki o'sha davr sintaksisi uchun muhim bo'lgan gap, sodda gap, gap bo'laklari, ega va kesim, ikkinchi darajali bo'laklar kabi tushuncha yevropa tilshunosligidan kirib keldi. 1940 yilda esa A.G'ulomovning «O'zbek tili grammatikasi» nomli kitobi nashrdan chiqdi. Uning bu kitobi pedagogika bilim yurti o'quvchilari uchun sintaksisdan darslik bo'lib, unda sodda gap boshqa darsliklardagiga qaraganda kengroq yoritilgan edi. Bu darslikning ahamiyatli tomoni shunda ediki, unda sintaksisning nazariy tahlil usuli mukammal shakllangan. Bunda: 1. "1. Sodda gap ikki bosh bo'lakdan - ega va



kesimning birikishidan iborat. 2. Kesim ega haqidagi biror xabarni tasdiq yoki inkor formada ifodalashga xizmat qiladi. Bosh bo'laklar ichida egaga mavqe beriladi. Kesim ega bilan shaxs-sonda moslashadi. 3. Sodda va qo'shma gaplarni aniqlashda egaga tayaniladi". Tilshunos R.Sayfullayeva ta'kidlaganidek, "bosh bo'laklarga bunday yondashish mantiqiy subyekt-predikat munosabatini grammatik ega-kesim munosabati bilan qorishtirib yuborishga olib keladi". Bu esa o'zbek tilshunosligi Yevropa tilshunosligining andozasi ekanligidan darak beradi va o'zbek tili darsliklari ham rus tili darsliklari asosida tuzilganligi ko'zga tashlanadi. Rus tili darsliklari namunasi asosida tuzilgan qo'llanmalar XX asrning 90-yillarigacha amalda bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Yevropa tilshunosligi meyorlarida o'zbek tilini o'rganish tilshunoslarimiz oldiga o'zbek tili meyorlarini belgilash va ommalashtirish, "ona tili ta'lim mazmunini yangilash, o'zbek tili grammatik qurilishini rus tili grammatik meyorlari chizmasi asosida baholash asoratidan qutqarish" kabi maqsadlarni qo'ydi. O'zbek tilshunosligining Hind-Yevropa tillari va tilshunosligi ta'sirida rivojlanganligi o'zbek tilining sintaktik talqinida ham bir talay muammoni keltirib chiqardi. Yevropa tilshunosligi, xususan, Moskva tilshunoslik maktabining namoyandalari F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy, V.V.Vinogradov nazariyasiga tayangan holda o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov gap haqida mufassal va izchil ta'limot yaratdi. A.M.Peshkovskiy, V.V.Vinogradov va ularning izdoshlari o'z ta'limotlarida rus tilining ichki qonuniyati va logik oqimning tilshunoslikdagi qoldiqlarini aks ettirdi, hamda gapga nutqiy hodisa sifatida

yondashdi. Ular «gapni turkiy tillarning, jumladan, o'zbek tilining o'z tabiatidan, o'z ichki qonuniyatidan kelib chiqib» o'rganmadi. Bu esa gapni baholash markazida ega turishi haqidagi nazariyaga tayanishidan vujudga keldi. Bu holat kesimning, xususan, gapning lisoniy mohiyati nazardan chetda qolishiga sabab bo'ldi. Natijada gapga lisoniy birlik sifatida qarash, unga mufassal ta'rif berish, shuningdek, boshqa masala kabi yig'iq gapning ontologik tavsifini berish kabilar muammo bo'lib qoldi. Bu Sayfullayeva R.Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini: masalalar bilan XX asrning 90-yillariga kelib, o'zbek sistemaviy tilshunosligi shug'ullandi. O'zbek sistemaviy tilshunosligining vakillari bo'lgan H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, S.Nazarova, M.Qurbonova, M.Abuzalovalar o'z tadqiqotlarida o'zbek tilshunosligida ham sintaktik hodisada substansial va aksidensial jihatni farqladi, gap va so'z birikmasining lison-nutq nuqtai nazaridan izchil tavsifini berdi va o'z "tadqiqotlarida so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap, an'anaviy so'z-gaplarning substansial mohiyati-lisoniy-sintaktik qoliplarini ishlab chiqishdi". Bu tadqiqotchilar gapning eng kichik qurilish qolipini lisoniy birlik sifatida olishdi. Tildan foydalanish fikrni shakllantirish va bayon qilishdan iboratdir. Bu esa gap orqali amalga oshar ekan, demak, til yaxlit vujud sifatida sintaksisda namoyon bo'ladi. O'zbek tilining sintaktik qurilishi o'rganila boshlangandan so'ng, tilshunoslar gapning faqat tashqi tomoniga emas, balki ichki tomoniga ham e'tibor qarata boshladi. Formal tilshunoslikda esa til yopiq tizim sifatidagi sathlarga ajratilib, «lisoniy birliklarning o'zi ifodalayotgan obyektiv



borliq bilan munosabati tadqiqotdan chetda qoldi». Formal sintaksis bevosita kuzatishda berilgan og'zaki, yozma shakllarda voqelangan hodisani o'rganishga e'tiborni qaratdi va uning tahlil asosini bevosita kuzatishda berilgan nutqiy sintaktik hodisa tashkil etdi. Formal tilshunoslikda lison va nutq hodisasini farqlamaslik, imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik kabi tushunchani chalkashtirish sintaktik hodisaning substansial mohiyatini ochishga to'siq bo'ladi. Shu asosda «an'anaviy sintaksisda gapning bir va ikki tarkibliligi, asosan, sodda gap materiali asosida o'rganiladi»¹⁶ va sodda gaplar yig'iq va yoyiq turlarga bo'linadi. O'zbek tilshunosligi rus tilshunosligi zamirida rivojlanganligi, shuningdek, logik oqimning ta'siri tufayli sodda gap [S-P] qolipida tasvirlandi va talqin etildi. Gap haqidagi formal ta'limotning o'zbek tili grammatik qurilishini talqin qilishida ko'proq rus tilining grammatik qurilishiga xos meyor va qoidaga tayanilgan. Bu fikr asosini tilshunos A.G'ulomovning quyidagi qarashida ko'rish mumkin: «Sintaksis asosida gap haqida ta'limot yotadi»¹⁷ «So'zlarning predikativ munosabati (predikat-kesim), odatda, gapni hosil qiladi. Predikativ bog'lanish - ega va kesim munosabati gapning yadrosidir». «Gapning asosini tobelanish tashkil qiladi, busiz gap maydonga kelmaydi. Gapning asosi bo'lgan ega va kesimning o'zaro aloqasi ham tobelanish yo'li bilan bo'ladi»¹⁸ A.G'ulomovning bu fikri o'zbek tilining substansial talqinida boshqacha ahamiyat kasb etadi. Chunki «gapning asosi va yadrosi ega va kesim» degan fikrga zid o'laroq, «gap tushunchasi kesim tushunchasi bilan zich bog'langan»¹⁹ Gap - kishilarning bir-biriga fikr, axborot

uzatish uchun ishlatadigan asosiy birlik bo'lib, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko'rinishidir. Gapni gap qilib turgan asosiy belgi uning kesimlik (predikativlik) belgisi ekanligidan xabaringiz bor. Gapning kesimlik belgisi kesimlik ma'nolarini [zamon, shaxsson, tasdiq, inkor, modal (mayl)lik] ifodalovchi kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Kesimlik ma'nosini ifoda etgan har qanday sintaktik birlikgap sanaladi. Masalan, Borma+sa(y)+di+m. Ko'm-ko'k dala. Bu gaplarning birinchisida kesimlik ma'nolari alohida-alohida kesimlik shakllari: tasdiqinkor ma'nosi -ma shakli orqali, modal (mayl) ma'no -sa(y) shakli orqali, zamon ma'nosi -di shakli orqali, shaxs ma'nosi esa -m shakli orqali ifodalanmoqda. Ikkinchi gapda ham shu kesimlik ma'nolarining hammasi: tasdiq, aniqlik (modal ma'no), hozirgi zamon, III shaxs ma'nolari anglashiladi, lekin ular moddiy ko'rsatkichlarga ega emas. Nol ko'rsatkich orqali umumiy tarzda ifodalangan. Ana shu ma'nolar mavjudligi uchun ham u sintaktik birlik gap sanaladi. Gap uchun muhim belgi sanalgan kesimlik belgisining miqdori gaplarni sodda va qo'shma gaplarga bo'lishga asos bo'ladi.

Bitta kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap sodda, ikki va undan ortiq kesimlik belgisiga ega bo'lgan gap esa qo'shma gap sanaladi. Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topadi. Demak, har qanday gapning tuzilish jihatidan turlarini uning grammatik asosi belgilab beradi. Gapning grammatik asosini bosh bo'laklar: ega vakesim tashkil etadi. Gap tarkibidagi grammatik asos (ega va kesim) ning ishtirokiga ko'ra gaplar tuzilish jihatidan ikki turga bo'linadi: sodda gaplar va qo'shma gaplar. Bitta grammatik asosiga ega bo'lib ma'lum bir fikr va his-



hayajonni ifodalovchi gaplar sodda gaplar deyiladi. Ikki va undan ortiq grammatik asosdan iborat bo'lib. nisbatan murakkabroq fikrni ifodalovchi gaplar qo'shma gap deyiladi. Masalan: Chor atrofga yog'ganda gilam. Aslo yo'qdir bundayin ko'klam. (H. O.) Til bilan dil dushman bo'lmaydi. O'ldirmaydi qo'shiqni qo'shiq. (R. H.) Keltirilgan misollarning birinchisi sodda gap bo'lib. uning grammatik asosi bitta: ega va kesimdan (yo'qdir, ko'klam), ikkinchi gap esa qo'shma gap, uning grammatik asosi ikkita: 1) dushman bo'lmaydi, 2) o'ldirmaydi qo'shiq. Sodda gaplar grammatik asosning tarkibiga ko'ra ham ikki xil: 1) ikki tarkibli gaplar, 2) bir tarkibli gaplar. Grammatik asosi ikki bosh bo'lak (ega va kesim) dan iborat bo'lgan gaplar ikki tarkibli gaplar deyiladi. Masalan: Solihlar esga olinganda Allohning rahmati nozil bo'ladi (Tusiy). Bu gapning grammatik asosi ega (solihlar) va kesimi (hosil bo'ladi) dan iborat. Grammatik asosi bir bo'lakdan iborat bo'lgan gaplar bir tarkibli gap deyiladi. Masalan: Oyni etak bilan yopib bo'lmas. Bu gapning grammatik asosi faqat kesim (yopib bo'lmas) dan iborat.

Sodda gaplar, ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra yig'iq va yoyiq gaplarga bo'linadi. Ega va kesimdan tashkil topgan sodda gaplarning bir ko'rinishi yig'iq gap deyiladi. Masalan: Qor tindi. Hamma yoq oppoq. Tarkibida bosh

bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq gap deyiladi. Masalan: Aziz va ulug' bo'lgan Allohga bir scat astoydil tavajjuh qilish quyosh nuri tushadigan barcha narsadan yaxshiroqdir. (Abduni Zajjoj.) Bu gapda aziz va ulug' bo'lgan (aniqlovchi), Allohga (to'ldimvchi), bir soat (aniqlovchi) astoydil tavajjud qilishning (aniqlovchi), yaxshiroqdir (kesim). Shu boisdan, bu gap yoyiq gapdir. Gapda bosh bo'laklar tarkibi to'liq (ega ham, kesim ham mavjud bo'lishi) yoki to'liq bo'lmasligi (egasi tushirilgan bo'lishi) mumkin. Shunga ko'ra gap ikkiga bo'linadi: Gapning zarur bo'lagi mavjud/mavjud emasligiga ko'ra turi. Gap zarur bo'lagining barchasi qatnashayotganligi yoki qatnashmayotganligiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) to'liq gap; b) to'liqsiz gap. To'liq gapda fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan bo'lakning barchasi qatnashadi: Ulardan xat keldimi? To'liqsiz gapda nutq vaziyatidan ma'lum bo'lgan ayrim bo'lak tushiriladi: – Siz maktabga borasizmi? – Boraman (ega (men), hol (maktabga) tushirilgan). To'liqsiz gapning quyidagi turi mavjud: a) dialogik nutq tarkibidagi to'liqsiz gap: – Kim kelmadi? – Ahmad; b) ibora shaklidagi to'liqsiz gap: Tug'ilgan kuningiz bilan! Navro'zingiz muborak!; d) qo'shma gap tarkibidagi to'liqsiz gap: Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod (qoladi).

Gapning tuzilishiga ko'ra turlari jadvali



| | 1. Sodda gap | 2. Qo'shma gap |
|---|---------------------------------|---|
| Predikativ markazlarning miqdoriga ko'ra | Bir bosh bo'lakli gap | Ikki bosh bo'lakli gap |
| Bosh bo'laklarning ishtirokiga ko'ra | Yig'iq gap | Yoyiq gap |
| Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra | To'liq gap | To'liqsiz gap |
| Zaruriy bo'laklar ishtirok etmasligiga ko'ra | Bo'laklarga bo'linadigan gaplar | Bo'laklarga bo'linmaydigan gaplar (so'z gaplar) |
| Bo'laklarga bo'linishbo'linmasligiga ko'ra | | |

References:

1. Abdullayev A.B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zga gaplarning ifoda formalari. – Toshkent: TDPI, 1983. – 87 b.
2. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 248 b.
3. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qoliplari va uning nutqda voqelanishi: Filol. fanlari nomzodi dis... –Buxoro, 1994. – 128 b.
4. Akromov T. Hozirgi o'zbek tilida ot-kesim: Filol. fanlari nomzodi dis...–Toshkent, 1967. –174 b.
5. Bobokalonov R. O'zbek tilida gap sintaksisi va so'z-gaplarning sistem-struktur talqini. –Toshkent: Fan, 2006. – 38 b.
6. Bobokalonov R. O'zbek tilida funksional-semantik shakllangan so'zgaplar: Filol. fanlari nomzodi dis... – Toshkent, 2000. – 136 b.
7. Bozorov O. O'zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi: Filol. fanlari nomzodi dis. ...avtoref. – Farg'ona, 2004. – 23 b.
8. Mahmudov N.M. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik sintaktik asimmetriya. – Toshkent: O'zbekiston, 1984. – 147 b.
9. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. (Sintaksis). – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 228 b.